



Features of application of personal-oriented training technologies

Buzulaykho KHAYDAROVA¹

Fergana Medical Institute of Public Health

ARTICLE INFO

Article history:

Received March 2024

Received in revised form

15 April 2024

Accepted 25 April 2023

Available online

25 May 2024

Keywords:

student-centered education,
globalization,
thinking,
analysis,
comparison,
opportunity,
talent,
individual activity,
personal experience,
didactic material,
amount of knowledge.

ABSTRACT

This article analyzes the features of the use of student-centered educational technologies in the process of developing knowledge and skills, as well as the role of didactic support for the lesson in the context of student-centered learning. Particular attention is paid to the need to integrate the personal experience of the student, who is the central subject of the educational process, with academic knowledge to ensure a deep understanding of the topic being studied. The article explores methods of coordinating students' personal experiences with the scientific content of the course, which contributes to more effective learning of the material and the development of critical thinking.

2181-1415/© 2023 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol5-iss4/S-pp68-75>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarini qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

shaxsga yo'naltirilgan ta'lim,
globallashuv,
isloh fikrlash,
tahlil qilish,
taqqoslash,
imkoniyat,
qobiliyat,
individual faoliyat,
rivojlanish shaxsiy tajriba,
didaktik material,
bilim hajmi.

Ushbu maqolada bilim va ko'nikmalarni shakllantirish jarayonida o'quvchiga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalaridan foydalanish xususiyatlari hamda o'quvchiga yo'naltirilgan ta'lim sharoitida darsni didaktik ta'minlashning o'zni tahlil qilinadi. O'rganilayotgan mavzuni chuqur o'zlashtirishni ta'minlash uchun o'quv jarayonining markaziy sub'ekti bo'lgan talabanning shaxsiy tajribasini akademik bilimlar bilan uzviy bog'lash zarurligiga alohida e'tibor beriladi. Maqolada talabalarning shaxsiy tajribasini kursning ilmiy mazmuni bilan muvofiqlashtirish usullari o'rganiladi, bu materialni yanada samarali o'rganishga va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi.

¹ Fergana Medical Institute of Public Health

Особенности применения личностно-ориентированных технологий обучения

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

личностно-ориентированное образование, глобализация, мышление, анализ, сравнение, возможность, талант, индивидуальная деятельность, личный опыт, дидактический материал, объём знаний.

В данной научной статье анализируются особенности использования личностно-ориентированных образовательных технологий в процессе формирования знаний и умений, а также роль дидактического обеспечения урока в контексте личностно-ориентированного обучения. Особое внимание уделяется необходимости интеграции личного опыта обучающегося, который является центральным субъектом образовательного процесса, с академическими знаниями для обеспечения глубокого понимания изучаемой темы. Статья исследует методы согласования личного опыта студентов с научным содержанием курса, что способствует более эффективному усвоению материала и развитию критического мышления.

KIRISH

Globalashuv davrida jahonda ilm-fan, texnika va texnologiyalar shiddat bilan rivojlanayotgan davrda ta'lim, ilm-fan oldiga yangi talablarni ko'ndalang qo'yimoqda. Ta'lim tizimini muntazam isloh etish, o'qitishning zamonaviy usul va vositalarini takomillashtirish, ta'lim mazmunini boyitib borish, oliy ta'lim tizimida tayyorlanayotgan kadrlarning tayyorgarlik sifati, ularning salohiyati va raqobatbardoshligini oshirish kabi masalalar dolzarb muammoga aylanmoqda.

2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son farmonida «Uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish» va boshqa vazifalar ta'lim sohasidagi ustuvor yo'nalishlar sifatida belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-sonli "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy – axloqiy fazilatlariga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichlarga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida "Xalqaro tajribalardan kelib chiqib, oliy ta'limning ilg'or standartlarini joriy etish, jumladan o'quv dasturlarida nazariy bilim olishga yo'naltirilgan ta'limdan amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan ta'lim tizimiga bosqichma-bosqich o'tish" kabi vazifalar belgilangan. Ushbu vazifalar echimi tibbiy ta'lim muassasalarida shaxsga yo'naltirilgan ta'limning o'ziga xos xususiyatlari borasida talabalarining kasbiy kompetentligini shakllantirish metodikasini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta'limning bugungi vazifasi ta'lim oluvchilarni kun sayin oshib borayotgan axborot-ta'lim muhiti sharoiti, yuqori-ilmiy texnik rivojlanish, globalashuv, ekologik muammolar ko'payib borayotgan davrda mustaqil ravishda faoliyat ko'rsata olishga, axborot oqimidan oqilona foydalanishga o'rgatishdan iborat bo'lib, buning uchun ularga uzluksiz ravishda

mustaqil ishlash imkoniyati va sharoitini yaratib berish zarur bo'ladi. Shundan kelib chiqqan holda, talabaga nafaqat bilim berish, balki ta'lim oluvchilarni mustaqil izlanish, ishlash va fikrlash, tahlil qilish, taqqoslash, o'zgartirish, hayotiy muhim vazifalarni hal etishga qo'llash, barchaga hayot yo'li davomida bilimlarini tezkor yangilash va to'ldirishni o'rgatish, jamiyat rivojlanishining yuksalish darajasiga bog'liq bo'lmagan holda mustaqil faoliyat ko'rsata oladigan va jamiyat rivojlanishiga moslasha oladigan kadrlarni tayyorlashdan iborat bo'ladi. Ushbu dolzarb vazifalarni hal etishda "Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim"ning imkoniyatlari beqiyosdir.

Dunyoning xalqaro ilmiy markazlarida jahon andozalariga mos kompetentli mutaxassislar tayyorlash bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilib, mazkur tadqiqotlar asosida ta'lim jarayonida shaxsga yo'naltirilgan yondashuvdan foydalanish imkoniyatlari ta'lim sifati va samaradorligining oshishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bunda oliy ta'lim muassasalari talabalarining kasbiy kompetentligini shaxsga yo'naltirilgan ta'lim asosida shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarini takomillashtirish yuzasidan amalga oshirilayotgan ilmiy izlanishlar natijasida hamshiralik ishi fanini o'qitishda yangi pedagogik texnologiyalar asosida chuqur bilim berish va o'rgatish, talabalar ilmiy dunyoqarashini kengaytirish hamda hamshiralik ishi mutaxassislarini muammoli vaziyatlarda mustaqil fikrlovchi, ijodiy faoliyat yurita oladigan, ijodkor mutaxassislarni kreativlik asosida tayyorlashning ahamiyati dolzarb hisoblanadi. Bu esa shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalaridan o'quv jarayonida samarali foydalanish zarurligini taqozo etadi.

Hozirgi kunga qadar shaxsga yo'naltirilgan ta'lim muammosi sifatida ham mahalliy, ham xorijiy olimlar keng tadqiq etilgan bo'lsa-da, uni aynan tibbiy ta'limda qo'llash, o'zlashtirish va o'qitishning pedagogik shartlari, texnologiyalarini takomillashtirish xususiyatlarni hisobga olgan holda tadqiq etish e'tibordan chetda qolmoqda. Aynan tibbiy ta'limda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim metodik-didaktik asos va texnologiyalarini tadqiq etish, uni takomillashtirish zarurati mavzuni dolzarbligini belgilab berdi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Tibbiy ta'lim talabalapini kasbiy faoliyatga tayyoplash jarayonida Hamshiralik ishi fanini o'qitishda metodik ta'minotini takomillashtirishdan olingan amaliy natijalarni acocida:

Ilmiy-tadqiqot ishi hajmi va unga uslubiy yondashuv muallifning barcha asosiy natijalari, olindigan xulosalar va tavsiyalarni ishonchli va asosli ekanligini bildiradi.

Talabalarda bilim bazasini mustaxkamlash maqsadida Hamshiralik ishi fanini o'qitish mazmunini takomillashtirishda shaxsga yo'naltirilgan zamonaviy innovatsion pedagogik ta'lim texnologiyalaridan foydalanishga oid tavsiyalardan o'quv dasturlarini takomillashtirish, o'quv adabiyotlarni yangi avlodini yaratish, hamshiralik dasturlari rivojlanishga qaratilgan samarali ta'lim usullari ko'nikmalar ishlab chiqish va amaliyotda qo'llash lozim.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'limning dolzarbligini fan, madaniyat va ma'rifat masalalari bo'yicha BMT tarkibidagi nufuzli bo'lim – YUNESKO tomonidan ham tan olingan va bu tashkilot komissiyasi tomonidan ishlab chiqilgan "XXI asr ta'lim konsepsiyasi"ning asosida ham shaxsga yo'naltirilgan ta'lim prinsiplari bayon etilgan.

Oxirgi yillarda iqtisodiyotning barcha tarmoqlariga zamonaviy innovatsion texnologiyalar jadallik bilan kirib kelmoqda. Mazkur jarayonlarga milliardlab AQSH dollari miqdorida xorijiy investitsiyalar jalb qilinmoqda va minglab yangi texnologik ish o'rinlari yaratilmoqda.

Shu bilan birga, xalqaro mehnat bozori talablari, integratsion jarayonlarning jadallashuvi, raqamlashtirish davrida zamon talablariga mos malaka va ko'nikmalarga ega raqobatbardosh bo'lajak mutaxassislarini tayyorlashni, ularning qobiliyat va iste'dodini, intellektual salohiyatini yuzaga chiqarish bugungi kunda pedagoglar oldida turgan vazifalardan biridir.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'limning asosiy mohiyati o'rganilayotgan mavzu bo'yicha ta'lim oluvchining ta'lim jarayoni markaziy sub'ekti sifatida shaxsiy tajribasini ochib berish, berilayotgan bilimlar bilan moslashtirib borish va mos ilmiy mazmunga o'tkazishdan iborat².

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim jarayonida ta'lim oluvchi butun ta'lim jarayonining asosiy ishtirokchisi, ta'lim beruvchi bilan teng huquqli mustaqil bilim oluvchi sub'ektdir, ta'lim beruvchi esa nafaqat «ma'lumot manbai» va «nazoratchi», balki ko'proq ta'lim oluvchi shaxsi rivojlanishiga yordam beruvchi, qo'llab-quvvatlovchi, rag'batlantiruvchi va tashxis qo'yuvchi hamdir.

An'anaviy ta'limdan farqli ravishda, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim ta'limni tashkil etishning bir turi bo'lib, ta'lim jarayonida ta'lim oluvchilarning imkoniyat va qobiliyatlarini to'laligicha hisobga olgan holda, ularning shaxsiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun zarur sharoitlarni yaratishdan iborat [2].

Bunday o'quv jarayonini tashkil etish M.Montessori ta'limotidan olingan "Menga mustaqil bajarishimga yordam bering" tamoyiliga asoslangan rahbarlikni taqozo etadi (Montessori pedagogikasi yoki Montessori tizimi deb nomlangan nazariya XX asrda italyan pedagog-olimi Mariya Montessori tomonidan ishlab chiqilgan va har bir o'quvchiga individual yondashuv, o'quvchining shaxsiy rivojlanish ritmi va yo'nalishini qo'llab-quvvatlashga asoslangan) [2].

Shaxsga yo'naltirilgan dars ta'lim beruvchi tomonidan maqbul ijodiy muhitni tashkil etishdan iborat bo'lib qolmasdan, ta'lim oluvchining shaxsiy tajribasiga ularning hayotiy faoliyati tajribasi sifatida tayanish, murojaat qilish va dars jarayonida foydalanishdan ham iborat.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'limning asosiy mohiyati o'rganilayotgan mavzu bo'yicha ta'lim oluvchining ta'lim jarayoni markaziy sub'ekti sifatida shaxsiy tajribasini ochib berish, berilayotgan bilimlar bilan moslashtirib borish va mos ilmiy mazmunga o'tkazishdan iborat.

Ta'lim beruvchi dars jarayonida ta'lim oluvchini turli bilim sohalariga taalluqli tarqoq tasavvurlar shaklidagi shaxsiy tajribasining chegaralanganligini engib o'tishga undash orqali bu tajribani ilmiy ahamiyatli shaklga o'tkazishga erishishi zarur.

Ta'lim beruvchi dars jarayoniga tayyorlanar ekan, qanday materialni berishini emas, balki oldingi o'zlashtirilgan va beriladigan bilimlarning mazmuniy xususiyatlarini ta'lim oluvchining shaxsiy hayot faoliyati bilan bog'lashni ham rejalashtirishi talab etiladi. Bunda ta'lim oluvchilar taklif etgan fikr va variantlarning muhokama qilinishi ham ahamiyatli bo'lib, fikrlar qat'iy ("to'g'ri", "noto'g'ri") baholanmasligi, balki to'g'ri fikrlar va takliflar rag'batlantirilishi, noto'g'rilari esa birgalikda tuzatilishi ("xato qilishga haqi bor – xatolaridan o'rgansin")ni nazarda tutishi kerak. Bu jarayonda ta'lim beruvchi taklif etilgan variant, fikr va takliflarning qaysi birlari darsning maqsadi va mazmuniga mos kelishini tahlil qilib borishi, ajratib ko'rsatishi va qo'llab-quvvatlashi alohida mohiyat kasb etadi [3].

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Zamonaviy sharoitda talabalarning o'qitish sifatini oshirish maqsadida innovatsion ta'lim shakllaridan foydalanish katta ahamiyat kasb etmoqda.

Shunday ta'limlardan biri bo'lgan shaxsga yo'naltirilgan ta'lim talabaning iqtidorini ochib berishda muhim ahamiyatga kasb etmoqda. An'anaviy pedagogik texnologiyalardan farqli ravishda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasining markazida har-xil vaziyatlarda qarorlarni mustaqil, nostandart fikrlash fazilatlariga ega talaba shaxsi turadi.

Talabalarda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim orqali hamshiralik ishi fanining o'qitishning metodik ta'minotini takomillashtirish yuzasidan tajriba-sinov ishlari uchun asoslovchi, shakllantiruvchi va ta'kidlovchi bosqichlari belgilandi.

Bunda asosan multimediali elektron darslik (multimediali elektron kitob, darajali topshiriqlar to'plami, ko'p variantli avtomatlashtirilgan test, analitik-modellashtirish, konstruktiv-shakllantiruvchi intellektual kompyuter o'yinlari, videodars, korreksion-dagnostik, virtual detal modellari, glossariy)dan foydalanilib, anketa-so'rovnoma avtomatlashtirilgan darajalangan ko'p variantli testlar asosida baholandi.

Tajriba-sinov dasturini tuzishdan ko'zda tutilgan asosiy maqsad-tadqiqot konsepsiyasi, obykti, predmeti, vazifalari va ilgari surilgan ilmiy farazlardan kelib chiqqan holda tajriba-sinov ishlari samaradorligini oshirishning amaliy jihatlarini aniqlash va puxta o'rganish orqali eng maqbul shakl, metod va vositalarini belgilashdan iborat.

Shuni ta'kidlash kerakki, tajriba-sinov ishlari ilmiy-pedagogik tadqiqotning ajralmas qismi bo'lib, izlanishlar natijalarining haqqoniyligi, amaliy ahamiyati hamda tatbiqiylikni tasdiqlashning bosh mezonini hisoblanadi. Shunga ko'ra, *tajriba-sinov ishimizning maqsadi* olingan natijalarga ko'ra ta'lim va tarbiya jarayonining aniq muammolari echimiga oid pedagogik va metodik tavsiyalar, pedagogik innovatsiyalar, ta'lim sifatini oshirishga oid ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish hamda Hamshiralik ishi fanini o'qitishda talabalarning o'quv bilish faoliyatini takomillashtirish samaradorligini tekshirishdir.

Olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishi bo'yicha o'tkazilgan pedagogik tajriba-sinov ishlarining talabalar bilim darajasini tajriba avvalida va tajriba yakunida aniqlash hamda solishtirish, tahlil qilish bosqichi professor-o'qituvchilar va muallif tomonidan muntazam ravishda amalga oshirildi.

O'tkazilgan tajriba ishlarida xamshiralik ishi fanini o'qitish jarayonining samaradorligini oshirishni baholash bir qator olimlarning matematik-statistik ma'lumotlarni qayta ishlab chiqishga oid usullaridan foydalanish orqali o'rganib chiqildi va tajriba-sinov natijalariga tadbiq qilindi.

Hamshiralik ishi fani bo'yicha tajriba-sinov ishlari yaxlitlik, obyektivlik, samaradorlik, ilmiylik, talaba shaxsiga insonparvar yondashuv, o'quv-ilmiy axborotlarning zarurati va etarli bo'lishi, ilmiy-metodik maslahatning ko'p tomonlamaligi, pedagogik tajriba-sinov ishlarini tizimli tashkil etish va baholash metodik mezonlar asosida amalga oshirildi.

O'tkazilgan tajriba ishlarida o'qitish jarayonining samaradorligini oshirishni baholash bir qator olimlarning matematik-statistik ma'lumotlarni qayta ishlab chiqishga oid usullaridan foydalanish orqali o'rganib chiqildi va tajriba-sinov natijalariga tadbiq qilindi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim orqali Hamshiralik ishi fanining o'qitishning metodik ta'minotini takomillashtirish bo'yicha tajriba-sinov ishlari

o'tkazildi. Tajriba avvalidagi va tajriba yakunidagi statistik ko'rsatkichlarini hisoblash, ularning statistik tahlilini o'tkazishda matematik statistika usullaridan foydalanildi.

T/r	Mezon ko'rsatkichlari	Tajriba avvalida (131 talaba)			Tajriba yakunida (131 talaba)		
		yuqori	o'rtacha	past	yuqori	o'rtacha	past
1.	Hamshiralik ishi sohasidagi bilimlarga egalik salohiyati	25	61	45	47	68	16
2.	Resurslar bilan ishlashda o'quv bilish faoliyatini rivojlanganligi	23	60	48	43	70	18
3.	Hamshiralik ishi uskunalar bilan ishlashda o'quv bilish faoliyatini rivojlanganligi	24	57	50	46	67	18
4.	O'z-o'zini rivojlantirish o'quv bilish faoliyatini rivojlanganligi	25	58	48	44	71	16
	O' r t a c h a s i:	24	59	48	45	69	17

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim orqali Hamshiralik ishi fanining o'qitishning metodik ta'minotini takomillashtirish darajasini aniqlashga qaratilgan tajriba avvalgi va tajriba yakunidagi statistik ma'lumotlarda farqlar sezilarli ekanligini ko'rish mumkin.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim orqali Hamshiralik ishi fanining o'qitishning metodik ta'minotini takomillashtirish darajasini aniqlashga qaratilgan tajribadan avvalgi va tajriba so'ngidagi ma'lumotlarning qiyosiy tahlili.


Guruhlar	O'quvchilar soni	O'zlashtirish natijalari		
		yuqori	o'rtacha	past
Tajribadan avvalgi	131	24 18	59 45	48 37
Tajriba yakunida	131	45 34	69 53	17 13

Tajriba-sinov natijalari tahliliga ko'ra, tadqiqot jarayoniga jalb etilgan talabalar bo'yicha tajribadan keyingi olingan statistik ko'rsatkichlar tajribagacha bo'lgan holatga nisbatan bilim, ko'nikma va malakalar shakllanganligi aniqlandi. Bu holatni obyektiv baholash uchun statistik tahlil amalga oshiriladi, aniqlashtirilgan xulosagina tajriba-sinov ishlarining ilmiy, pedagogik, texnologik va metodik jihatdan to'g'ri, samarali olib borilganini tasdiqlaydi.

Tajriba-sinov davrida ham statistik tahlilni amalga oshirish uchun Styudent va Pirson metodlari tanlandi. Mazkur metod ikki guruhda qayd etilgan ko'rsatkichlarni aniqlash va ob'ektiv baholash imkonini beradi. Matematik-statistik metodning mohiyatiga ko'ra dastlabki bosqichdagi kabi tadqiqotgacha va tadqiqotdan keyingi qayd etilgan

tanlanmalar sifatida belgilanib “yuqori”, “o‘rtacha” va “past” darajalari bo‘yicha variatsion qatorlarni hosil qilish lozim bo‘ladi.

Yuqoridagi jadval ma‘lumotlarini taqqoslash maqsadida quyidagi diagrammani hosil qilamiz.



Shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim orqali Hamshiralik ishi fanining o‘qitishning metodik ta‘minotini takomillashtirish bo‘yicha diagramma.

Diagrammadan ko‘rinib turibdiki, tajriba guruhidagi yuqori va o‘rta ko‘rsatkichlar nazorat guruhi ko‘rsatkichlaridan yuqori ekan. Yuqoridagi natijalarga asoslangan holda matematik statistik tahlil qilinib, tajriba yakunidagi holat uchun o‘rta qiymatlar, tanlanma dispersiya, variatsiya ko‘rsatkichlari, Studentning tanlanma mezoni, student mezoni asosida erkinlik darajasi, Pearsonning muvofiqlik mezoni va ishonchli chetlanishlari topildi.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim orqali Hamshiralik ishi fanining o‘qitishning metodik ta‘minotini takomillashtirish bo‘yicha tajriba-sinov ishlarining statistik ko‘rsatkichlari.

$\bar{X}$	$\bar{Y}$	S_x^2	S_y^2	C_x	C_y	$T_{x,y}$	K	$X_{n,m}^2$	Δ_x	Δ_y
1,81	2,21	0,5139	0,4259	3,47	2,57	5,0	260	21,96	0,12	0,11

Yuqoridagi natijalarga asoslanib tajriba-sinov ishlarining sifat ko‘rsatkichlarini hisoblaymiz.

Bizga ma‘lum $\bar{X}=1,81$; $\bar{Y}=2,21$; $\Delta_x=0,12$; $\Delta_y=0,11$ ga teng.

Bundan sifat ko‘rsatkichlari:

$$K_{ycb} = \frac{(\bar{Y} - \Delta_y)}{(\bar{X} + \Delta_x)} = \frac{2,21 - 0,11}{1,81 + 0,12} = \frac{2,10}{1,93} \approx 1,09 > 1;$$

$$K_{oob} = (\bar{Y} - \Delta_y) - (\bar{X} - \Delta_x) = (2,21 - 0,11) - (1,81 - 0,12) = 2,10 - 1,69 = 0,41 > 0;$$

Matematik statistik tahlillardan ma‘lumki, tajriba guruhidagi o‘zlashtirish ko‘rsatkichi nazorat guruhidagi o‘zlashtirishdan yuqori (13,4%ga) ekan. Yuqoridagi

statistik tahlil shuni ko'rsatadiki, tadqiqot natijalari bo'yicha o'tkazilgan va dissertatsiyada keltirilgan statistik tahlillar tajriba-sinov ishlari samarador ekanligini va bizning ko'zlagan maqsadimiz tasdiqlanganini ko'rsatadi.

Xulosa

Olib borilgan izlanishlarga asosan quyidagi xulosaga keldik. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim talaba shaxsidagi mustaqillik, tashabbuskorlik, javobgarlikni his etish, tanqidiy fikrlash kabi sifatlarini tarbiyalaydi. Bu esa o'z navbatida ta'lim sifati va samaradorligini oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Kadirova M. Tibbiy ta'lim jarayonida kasbiy kompetentlikni metodik takomillashtirish texnologiyalari (tibbiyotda pedagogikani o'qitish misolida). Pedagogika fanlari doktori ... diss. – Namangan, 2023. – 202 b.
2. Диканская Н.Н. Оценочная деятельность как основа управления качеством образования // Стандарт и Мониторинг в образовании. 2003. – № 3. – С. 38–42.
3. Монтессори М. Помоги мне это сделать самому. / Сост. М.В.Богуславский, Г.Б.Корнетов. – М.: ИД «Карапуз», 2000.
4. Монтессори М. Самовоспитание и самообучение в начальной школе. / Пер. с англ. Р. Ландсберг. – М.: «Работник просвещения», 1992. –С. 200.
5. Монтессори М. Развитие потенциальных возможностей человека. / Пер. с англ. Д.Смоляковой. // Бюллетень МАМА, 1993, №2,3,5.
6. Методические рекомендации по проектированию оценочных средств для реализации многоуровневых образовательных программ ВПО при компетентностном подходе / В.А. Богословский, Э.В. Караваева, Э.Н. Ковтун, О.П. Мелехова, С.Е. Родионова, В.А.Тарлыков, А.А. Шехонин. – М.: Изд-во МГУ, 2007. –148 с.
7. Burhanova G.T., Varga V. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim. O'quv-uslubiy majmua. – T., 2014.
8. Делор Ж. Образование: сокрытое сокровище. – М.: УНЕСКО, 1996.
9. Михайловский М.Н. Особенности социально-психологических компетенций. Актуальные вопросы современной психологии и педагогики : Сборник докладов XII-й Международной научной конференции (Липетск, 28 декабря 2012 г.).
10. Axunova G.N., Golish L.V., Fayzullaeva D.M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish. / B.Yu.Xodiev tahriri ostida. – T.: «Iqtisodiyot», 2009.
11. Палсев М.А. Болонский процесс и высшее медицинское образование в России // Вестник РАН. – Том 75. – № 2. – 2005. – с. 1067–1076.
12. Основы личностно-ориентированного образования. / И.С. Якиманская. – М.: «Бином. Лаборатория знаний», 2011.